

## TARIX YO'NALISHI TALABALARI UCHUN BITIRUV MALAKAVIY ISHI MAVZULARI

Nº	BMI MAVZUSI	IZOH
1.	Jizzax shahri mahallalarining tashkil topishi va rivojlanishi tarixi mavzusida elektron xarita yaratish	XVI-XIX asrlarda Movarounnahrda kechgan siyosiy jarayonlarning Jizzax shahriga ta'siri, o'zbek urug'larining Jizzax shahri va atrofiga o'rnashishi natijasida yangi mahallalarning vujudga kelishi, qo'shni O'ratega, Xovos, Zomin, Toshkent hududlarida aholining Jizzaxga ko'chib kelishi sabablari, yangi mahallalarning tashkil topishi ilmiy asosda o'rganiladi va elektron xaritasi tayyorlanib DGU olinadi
2.	Turkiston general-gubernatorligining boshqaruv va sud tizimi faoliyati (Jizzax uezdi misolida)	Loyihada Turkiston general-gubernatorligi davridagi boshqaruv tizimi, boshqaruvda mahalliy fuqarolarning ishtiroki, sud tizimining o'ziga xosligi, sud organlarining faoliyat chegaralari, qozilik sudsulari, xalq sudsulari, harbiy sud komissiyalari faoliyatining farqlari (Jizzax uezdi misolida) yozma manbalar va arxiv materiallari ilmiy tadqiqot qilinadi va risola tayyorlanib viloyat sudi bilan xo'jalik shartnomasi tuziladi
3.	Forish tumani tarixi va etnografiyasiga oid videvizual materiallar kontentini tayyorlash.	Bunda tuman tarixi, arxeologiyasi, etnografiyasi va tumanga xos qadriyatlarini o'rganish bo'yicha startap loyiha tayyorlanadi.
4.	O'zbekiston tarixining muhim voqeahodisalarini davriy nashrlar fotosuratlari vositasida yorituvchi ma'lumotlarning elektron bazasini yaratish	Bunda: O'zbekiston davriy nashrlaridagi fotosuratlar o'rganilib, tizimlashtirilib, davr tarixini suratlar vositasida tavsiflashga xizmat qiluvchi elektron bazani yaratish va shu asnoda tariximiz haqida fotosuratlarga asoslangan ma'lumotlarni shakllantirish nazarda tutiladi.
5.	Jizzax viloyatida ziyyorat turizmini rivojlantirishga qaratilgan kontentni tayyorlash	Ushbu loyihada turistik obyektlar to'g'risida flaer, buklet va videofilmlar tayyorlash va DGU olish nazarda tutiladi
6.	Jizzax viloyatida joylashgan antik va ilk o'rta asrlarga oid mozorqo'rg'onlar bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish.	So'nggi yillarda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar doirasida Jizzax vohasida qayd qilingan qadimgi va ilk o'rta asr mozorqo'rg'onlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini tashkil qilish va shakllantirish nazarda tutiladi
7.	Buxoro xonligi tarixi bo'yicha kitob-albom tayyorlash (XVI-XVII asrlar misolida)	So'nggi yillarda o'rganilgan tadqiqotlar doirasida Buxoro xonligining XVI-XVII asrlar davri tarixi bo'yicha kitob-albomini tayyorlash nazarda tutiladi
8.	Sovetlar davri O'zbekistondagi migrantsion jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolga ta'siri asosida elektron dastur yaratish.	mavjud obyektlar to'g'risida informatsion materiallar tayyorlash va mavjud obyektlarning hozirda noma'lum ma'lumotlarini ommalashtirish tadbirlari nazarda tutiladi